

GIPERTONIYA KASALLIGI BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA SURUNKALI YURAK YETISHMOVCHILIGINI DAVOLASHDA ANGIOTENZIN II RETSEPTORLARI ANTAGONISTLARINI KOMBINATSIYALANGAN HOLDA QO'LLASH SAMARADORLIGI

Nizomov Baxtiyor Urakovich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Pediatrica fakulteti ichki kasalliklar kafedrasida assistenti

Mardiyeva Jasmina Sayfullo qizi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Pediatrica fakulteti 504-guruh talabasi

Sobirova Komila Davronovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Farmatsiya fakulteti 303-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18655172>

Dolzarbli: Hozirgi vaqtda surunkali yurak yetishmovchiligini (SYUYE) davolashda angiotenzin II retseptorlari antagonistlari (ARA) juda keng qo'llanilmoqda. Rossiya kardiologlar ilmiy jamiyati va Yurak yetishmovchiligi bo'yicha mutaxassislar jamiyati milliy tavsiyalariga ko'ra, SYUYE davolashda ARA preparatlarini maqsadli qo'llash yuklamadan oldingi va keyingi qarshilikni kamaytirish hisobiga chap qorincha (CHQ) sistolik va diastolik funksiyasini yaxshilaydi, CHQ o'tilib chiqish fraksiyasini oshiradi. Shuningdek, yurak kameralaridagi bosimning pasayishiga olib keladi, natijada miokardning kislorodga bo'lgan ehtiyoji kamayadi hamda chap qorinchaning diastolik va sistolik funksiyasi yaxshilanadi. Irbesartanni kuniga 75 mg dozada qo'llash SYUYE bilan og'rigan bemorlarning o'lim xavfi va gospitalizatsiya qilinishini sezilarli darajada kamaytiradi.

Tadqiqot maqsadi: Gipertoniya kasalligi bilan og'rigan bemorlarda surunkali yurak yetishmovchiligini davolashda angiotenzin II retseptorlari antagonistlarining kombinatsiyalangan holdagi samaradorligini baholash.

Kalit so'zlar: surunkali yurak yetishmovchiligi, angiotenzin II retseptorlari antagonistlari, exokardiografiya, xilpillovchi aritmiya (mersatelnaya aritmiya), kaliy darajasi.

Material va usullar: Biz tomonimizdan gipertoniya kasalligi bilan og'rigan, SYUYE B bosqichi (NYHA bo'yicha III funksional sinf) va xilpillovchi taxiaritmiya bilan asoratlangan 52 nafar bemor tekshirildi. Tadqiqot RSHTYOIM (Respublika shoshilinch tibbiy yordam o'quv-ilmiy markazi) Samarqand filiali shoshilinch terapiya bo'limi bazasida o'tkazildi. Barcha bemorlarga kunlik 0,25 mg dozada digoksin, 250 ml kaliy-magniy asparaginati vena ichiga infuziyasi, kunlik 100 mg dozada veroshpiron hamda 75 mg dozada irbesartan bilan kombinatsiyalangan terapiya o'tkazildi. Barcha bemorlarda exokardiografiya, EKG o'tkazildi va qon plazmasidagi kaliy konsentratsiyasi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari: Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra, an'anaviy terapiya boshlangunga qadar 23 nafar bemorda (44%) exokardiografiya ma'lumotlariga ko'ra o'tilib chiqish fraksiyasi (OF) 32% dan past bo'lgan, kaliy darajasi esa 3,4 mmol/l dan pastni tashkil etgan. EKGda deyarli barcha bemorlarda yurak urish tezligi (YUT) minutiga 105-130 marta bo'lgan xilpillovchi aritmiyaning taxisistolik shakli qayd etilgan. Yuqorida ko'rsatilgan kombinatsiyalangan terapiya fonida bemorlarning klinik holati dinamikada yaxshilandi. Takroriy exokardiografiyada chap qorinchaning global qisqaruvchanligi oshdi (OF 56% gacha ko'tarildi), SYUYE belgilari kamaydi: pastki oyoqlardagi shishlar qaytdi, hansirash va o'pkadagi nam

xirillashlar miqdori kamaydi. Xilpillovchi aritmiyaning taxisistolik shakli minutiga 75-88 marta yurak urishi bilan kechadigan normosistolik shaklga o'tdi.

Xulosalar: Shunday qilib, SYUYE davolashda irbesartanni kunlik 75 mg dozada kombinatsiyalangan holda qo'llash bemorlarning klinik holati va hayot sifatini yaxshilashga, shuningdek, ushbu kasallikning keyingi asoratlarini oldini olishga imkon beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Тошназаров Шухрат Мизамович, Назарова Зухра Шариповна, Сафарова Фарангиз Хасановна, Исметдинова Зебо Салахиддиновна, Низомов Бахтиер Уракович Эффективность комбинированного применения ингибиторов АПФ в лечении хронической сердечной недостаточности // Вопросы науки и образования. 2019. №6(52). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/effektivnost-kombinirovannogo-primeneniyaingibitorov-apf-v-lechenii-hronicheskoy-serdechnoy-nedostatochnosti> (дата обращения: 12.10.2024).
2. Urakovich N. B. et al. Detection and Correction of Hypokalemia in Patients with Refractory Chronic Heart Failure. – 2023.
3. Urokovich N. B., Ferdavsiyevich U. T. Choosing the Correct Medication and Evaluating the Effectiveness of Farmadipine and Captopril in Patients Diagnosed with Arterial Hypertension in Emergency and Urgent Care Settings //Miasto Przyszłości. – 2024. – Т. 45.– С. 293-297.
4. Nizomov B. U. et al. ARTERIAL GIPERTENZIYA BO'LGAN BEMORLARDA FARMADIPIN VA KAPTOPRIL DORI VOSITALARINI TO 'G 'RI TANLASH VA EFFEKTIVLIGINI BAHOLASH //Analysis of world scientific views International Scientific Journal. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 5-12.
5. Агабабян И. Р. и др. Эффективность влияния комбинированной антигипертензивной терапии на качество жизни у больных гипертонической болезнью //Евразийский кардиологический журнал. – 2019. – №. S1. – С. 83.
6. Турдибеков Х. И., Низомов Б. У. Некоторые генетические аспекты развития бронхиальной астмы //Наука, техника и образование. – 2020. – №. 3 (67). – С. 60-62.
7. Ruziyeva A. A. et al. Verification of dyspnea according to external respiratory function in patients with bronchial asthma //International Journal on Orange Technologies. – 2021. – Т. 3. – №. 2. – С. 48-51.
8. Турдибеков Х. И., Шеркулов Ш. Р., Низомов Б. У. БРОНХИАЛ АСТМА БИЛАН ОФРИГАН БЕМОРЛАРДА В2-АДРЕНОРЕЦЕПТОР GLN27GLU
9. ПОЛИМОРФИЗМИНИНГ КАСАЛЛИК БЕЛГИЛАРИ БИЛАН АССОЦИАЦИЯСИ //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 322-326.
10. Turkmanov M. M., Nizamov B. U. REFRAKTER SURUNKALI YURAK YETISHMOVCHILIGI PAYDO BO'LGAN BEMORLARDA GIPOKALIEMIYANI ANIQLASH VA KORREKTSIYA QILISH.
11. Турдибеков Х. И., Агабабян И. Р., Низомов Б. У. ИССЛЕДОВАНИЕ УРОВНЯ СЫВОРОТОЧНЫХ ЦИТОКИНОВ ПРИ РАЗЛИЧНЫХ ФОРМАХ БРОНХИАЛЬНОЙ АСТМЫ С ТЯЖЕЛЫМ ТЕЧЕНИЕМ //Journal of cardiorespiratory research. – 2020. – Т. 1. – №. 1. – С. 95-98.
12. Ibragimovich T. H. et al. Some molecular genetic aspects of the formation of predisposition to bronchial asthma. – 2022.

13. Husan T. et al. FEATURES OF CHANGES IN IMMUNE HOMEOSTASIS IN PATIENTS WITH BRONCHIAL ASTHMA //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 276-281.
14. Шодиева Г. Р., Низомов Б. У. Роль функциональной диагностики в оценке степени обструкции дыхательных путей при бронхиальной астме //Наука и образование сегодня. – 2020. – №. 5 (52). – С. 81-82.
15. Erugina M. V. et al. The population health in The Russian Federation and the Republic of Uzbekistan: a comparative analysis //Problemy Sotsial'noi Gigieny, Zdravookhraneniia i Istorii Meditsiny. – 2023. – Т. 31. – №. 2. – С. 206-209.
16. Бабамурадова Заррина Бахтияровна, Насирова Азиза Акбаровна, Искандарова Фарида Исмаиловна ЭНДОТЕЛИАЛЬНАЯ ДИСФУНКЦИЯ ПРИ ХРОНИЧЕСКОЙ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТИ В СОЧЕТАНИИ С САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ //JCRR. 2021. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/endotelialnaya-disfunktsiya-prihronicheskoy-serdechnoy-nedostatochnosti-v-sochetanii-s-saharnym-diabetom> (дата обращения: 12.10.2024).
17. Рофеев М. Ш. и др. Клинические особенности и течение неалкогольной жировой болезни печени, по данным Самаркандского филиала РНЦЭМП //Роль больниц скорой помощи и научно исследовательских институтов в снижении предотвратимой смертности среди населения. – 2018. – С. 268-269.
18. Агабабян И. Р. и др. Эффективность влияния комбинированной антигипертензивной терапии на качество жизни у больных гипертонической болезнью //Евразийский кардиологический журнал. – 2019. – №. S1. – С. 83.